

o'z ta'sirini ko'rsatishi bu o'z navbatida demografik jarayonlarning dinamikasiga ta'sir etishi atroflicha ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X, Abduramanov X.X. Demografiya (o'quv qo'llanma). – T: Noshir, 2011.
2. <https://www.deutschland.de/ru>
3. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Darslik- T.: «NOSHIR» 2019. 183 b.
4. Tojiyeva Z.N. Aholishunoslik siyosati. O'quv qo'llanma. - T.: «Innovatsiya-Ziyo» 2022. 176 b.
5. Tojiyeva Z.N., Do'smonov F.A., Demografiya. O'quv qo'llanma. Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi.-T.:, 2020.-424 b.
6. Тожијева З.Н. Жиззах вилояти аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ижтимоий-иқтисодий муаммолар. География фанлари номзоди илмий даражасини олиши учун тайёрланган диссертация. -Т.: 1998 й.-34-б.
7. Тожијева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.) (монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. - 156 б.
8. Тожијева З.Н., Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. География фанлари доктори (Doktor of Science) илмий даражасини олиши учун тайёрланган диссертация. -Т.: 2017 й. 267-б.
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2023
10. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т.: «Адолат», 2014.
11. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси.- Т.: «Адолат», 2014.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING AHOLI BANDLIGIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Xoshbakov Baxodir

*Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish
agentligining Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasi*

O'zbekistonda xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, biznesni yuritish va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, soliq yukining yuqoriligi, soliq ma'muriyatchiligining shaffof emasligi, soliq solish maqsadida kichik tadbirkorlik sub'ektlarini aniqlash mezonlari optimal belgilanmaganligi, xufiyona iqtisodiyotning mavjudligi, soliq tushumlarini yashirish, soliq bazasi va ob'ektlari kamaytirib ko'rsatilishi kabi holatlar mavjud bo'lib, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish va amaliy yechimlarini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, 2026 yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini

yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60% ga yetkazish kabi vazifalar belgilangan [1].

Soliqlarning nazariy va huquqiy asoslari hamda soliqqa tortishga oid muammolar klassik iqtisodchi olimlardan U. Petti [2], D. Rikardo [3], A. Smit [4], shuningdek hozirgi zamon olimlaridan I.M. Aleksandrov [5], A.V. Brizgalin [6], V.G. Knyazev, I.M. Mayburovlarning ilmiy asarlarida tadqiq qilingan bo‘lib, ayrim jihatlari O‘zbekiston iqtisodisodchi - olimlar M.A. Almardonov, N.B. Ashurova M.A. Almardonov [7], N.B. Ashurova [8], S.K. Xudoykulov [9], N.R. Qo‘zievalar [10], tomonidan o‘rganilgan.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, kichik biznes va xususi tadbirkorlikni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘shni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi va respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida samarali tarzda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli yurtimizda kichik va xususi biznes subyektlari ikki barobar ko‘payib, sohada 1 million 400 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, o‘zini o‘zi ish bilan band qilgan aholi uchun qulay sharoit yaratish natijasida bir yilda 500 ming nafar fuqaro ro‘yxatdan o‘tib, faoliyatini qonuniy asosda yo‘lga qo‘ydi.

1-jadval

Kichik biznes sub’ektlarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyatini belgilovchi ko‘rsatkichlar

Yillar	Yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalar	Kichik biznesda aholi bandligi, (%)	Kichik biznesda band bo‘lgan aholi soni (ming)	Kichik biznesda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari (ming)
2018	38167	78,0	10541,5	373,3
2019	48922	76,3	10128,8	450,0
2020	96743	76,2	10318,9	524,3
2021	95311	74,5	9865,7	510,4
2022	102804	74,4	10070,7	621,

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2018 yilda kichik biznesda aholi bandligi 78 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 74.4 foizga oshib, kichik biznesda band bo‘lgan aholi soni 2018 yilda 10541,5 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda ushbu ko‘rsatkich 10070,7 ming yoki 2018 yilga nisbatan 571 mingtaga kamaygan. Tadbirkorlik sohasidagi islohotlar natijasida Jahon bankining “Biznesni yuritish” xalqaro reytingida O‘zbekiston besh yil ichida 141-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarildi. Bu ishlarning barchasi “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” degan ezgu da’vat asosida amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz milliy iqtisodiyotimizda haqiqiy bozor munosabatlarini joriy etish, shu asosda mamlakatimizni taraqqiy

ettirish uchun tadbirkorlarga bundan buyon ham barcha sharoitlarni yaratib beramiz. Nega deganda, tadbirkor – iqtisodiyotning, islohotlarimizning asosiy tayanchi va lokomotividir” [11].

Respublikada shakllangan soliq siyosati “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” tamoyili asosida olib borilmoqdaki, bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi hamda respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. E’tirof etish joizki, iqtisodiy dastaklardan biri bo‘lgan soliq mexanizmi orqali ularning faoliyatini tartibga solish va rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, yillik aylanmasi (tushumi) 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yuridik shaxslar aylanmadan belgilangan stavkada soliq to‘lasa, 1 milliard so‘mdan oshgan korxonalar umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkaziladi. Shuningdek, soliq davrida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 mln. so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ham aylanmadan soliq to‘laydi [12].

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, aylanmadan olinadigan soliq (yagona soliq to‘lovi) tushumi 2017-2018 yillarda o‘shish yendensiyasiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2019 yildan keskin kamayib kelmoqda. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, yagona soliq to‘lovi tushumi 2019 yilda 2018 yildagiga nisbatan deyarli 2,5 barobarga, 2020-2021 yillarda esa 3,3 barobarga kamayib ketgan[12].

Ushbu holatni xorijiy mamlakatlar tajribalari inobatga olingan holda, soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asosida 2019 yil 1 yanvardan tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish rejimi o‘zgarishi bilan asoslash mumkin. Buning natijasida 2020 yilda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan budjetga 379,4 mlrd. so‘m hamda yuridik shaxslar tomonidan 824,0 mlrd. so‘m miqdorida aylanmadan olinadigan soliq kelib tushishiga erishildi[12].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, biznes muhitini va zarur infratuzilma yaratish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish hozirgi davrning budjet-soliq siyosati, “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosida Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida belgilab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. – www.lex.uz
2. Петти У. Трактат о налогах и сборах. Слова мудрым. Разное о деньгах. –М.: Ос-89, 1997. 346 с.
3. Рикардо Д. Начало политической экономики и налогового обложения. Сочинения, том I. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1955. -360 с.

4. Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер. с англ. – М., 1962. – 408 с.
5. Александров И.М. Налоги и налогообложение. Учебник. – 7-е. изд., перераб. и доп. - Издателско-торговая корпорация «Дашков и Ко», - М.: 2007. – 314 с.
6. Брызгалин А.В. Правовое регулирование порядка установления и взимания местных налогов и сборов. //Финансы. 1996. № 1. –С. 30.с.
7. Almardonov M.I. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta’siri. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T: TMI, 2004.- 233 b.
8. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... diss. avtoref. – T.: 2018. – 72 b.
9. Xudoykulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d., diss. avtoreferati. – T., 2019. -77 b.
10. Qo‘zieva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. i.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TMI, 2008.- 298 b
11. <http://www.stat.uz> -O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЧКИ МЕҲНАТ МИГРАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Гулмуродов Камолиддин

Тошкент давлат иқтисодиёт университети катта ўқитувчиси

Миграция глобал ва ноаниқ ходисадир. Аҳоли миграциясининг ҳаракати турли хил омил ва сабабларнинг ўзаро таъсири натижасида юзага келади. Аҳолини бир жойдан иккинчи жойга кўчиб юришга мажбур қилувчи сабаблардан энг муҳими иқтисодий-ижтимоий сабаблар, яъни ишсизлик, муносиб иш топиш, олий ва ўрта махсус маълумот олиш, яъни ўқиш ва бошқа турлари билан ажралиб туради. Шунингдек, иқлимнинг салбий таъсири, моддий маданий-маиший шароитдан қониқмаслик ҳамда оилавий шароитларнинг таъсири ва ҳ.к.ни санаб ўтиш мумкин.

Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек “худудларни комплекс ривожлантириш тадбирларини изчил давом эттириш лозим” [1], худудларни ривожлантириш учун эса миграция омили ҳам жуда катта роль ўйнайди.

Миграция – ички ва ташқи миграцияга бўлинади. Ички миграция мамлакат ичкарасида аҳолининг худудлар бўйлаб, яъни шаҳар билан қишлоқ ўртасида қайта тақсимланишига олиб келади ва у мамлакатда аҳоли ва оилалар сонининг кўпайиши ёки камайишига сабаб бўлади. Ташқи миграция эса аҳолининг мамлакат худудидан ташқарига чиқиб кетиши назарда тутилади[2].

Аҳолининг миграцион ҳаракати асосан уч турга, яъни доимий миграцияга, мавсумий миграцияга ва тебранма миграцияга бўлинади. Кишиларнинг бир аҳоли пунктидан бошқа бир аҳоли пунктига, масалан, қишлоқдан шаҳарга ёки давлатлараро доимий яшаш жойини ўзгартириш мақсадида кўчиб юриши доимий